O‘ZBEKISTON MILLIY STANDARTI

Yetilmagan pishloqlar, shu jumladan yangi pishloqlar uchun guruh standart

(CODEX STAN 221:2001, IDT)

Rasmiy nashr

O‘zbekiston standartlar instituti

Toshkent

STANDARTLAR INSTITUTI #XBF51S6TH2 - 25.09.2026 O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI QISHLOQ XO'JALIGI VAZIRLIGI

So‘zboshi

1 O‘zbekiston standartlar instituti tomonidan ISHLAB CHIQILDI.

2 O‘zbekiston standartlar institutining 2026-yil 25-fevraldagi 6/XSt-26-sonli buyrug‘i bilan TASDIQLANDI.

3 Ushbu standart CODEX STAN 221:2001 “Group standard for unripened cheese including fresh cheese” xalqaro standartning matni bilan aynan o‘xshash.

4 DASTLABKI AMALGA KIRITILISHI

Ushbu milliy standartni va unga bo‘lgan o‘zgartishlarni O‘zbekiston hududida amalga kiritish, qayta ko‘rib chiqish yoki bekor qilish haqidagi axborot Standartlashtirish bo‘yicha milliy organning rasmiy veb-saytlari va standartlarning yillik axborot ko‘rsatkichlarda chop etiladi.

Ushbu standartni talqin qilish yoki qo‘llashda tushunmovchiliklar yuzaga kelganda standartning asli yozilgan tillarining biridan foydalanish tavsiya etiladi.

Ushbu standartni O‘zbekiston Respublikasi hududida rasmiy tarqatish mutlaq huquqi O‘zbekiston standartlar institutiga tegishli

STANDARTLAR INSTITUTI #XBF51S6TH2 - 25.09.2026 O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI QISHLOQ XO'JALIGI VAZIRLIGI

O‘ZBEKISTON MILLIY STANDARTI

Yetilmagan pishloqlar, shu jumladan yangi pishloqlar uchun guruh standart

Групповой стандарт на сыры без созревания, включая свежие сыры

Group standard for unripened cheeses, including fresh cheeses

Amalga kiritish sanasi 25.03.2026-yil.

1 Qo‘llanish doirasi

Ushbu standart yetilmasdan tayyorlanadigan pishloqlarga, jumladan yangi pishloqlarga tatbiq etiladi. Mazkur pishloqlar bevosita iste’mol qilish yoki keyingi qayta ishlash uchun mo‘ljallangan bo‘lib, ushbu standartning 2-bo‘limida keltirilgan tavsifga muvofiq bo‘lishi lozim.

Ushbu standartda yetilmasdan tayyorlanadigan ayrim pishloq turlari uchun CODEX standartlari ushbu standart qoidalarini aniqlashtiruvchi normalarni o‘z ichiga olishi mumkinligi nazarda tutiladi va bunday hollarda tegishli maxsus qoidalar qo‘llaniladi.

2 Tavsif

Yetilmasdan tayyorlanadigan pishloqlar, jumladan yangi pishloqlar, “Pishloq uchun umumiy standart” (CXS 283-1978) talablariga javob beradigan va ishlab chiqarilgandan so‘ng darhol iste’mol qilishga tayyor bo‘lgan mahsulotlardir.

3 Asosiy tarkib va sifat ko‘rsatkichlari

3.1 Xom ashyo

Sut va/yoki sutdan olingan mahsulotlar.

3.2 Ruxsat etilgan ingredientlar

– zararsiz sut kislotali va/yoki aroma hosil qiluvchi bakteriyalar hamda boshqa zararsiz mikroorganizmlar madaniyatlaridan iborat achitqilar;

– shirdon fermenti yoki boshqa xavfsiz va mos sutni ivituvchi fermentlar;

– osh tuzi;

– ichimlik suvi;

– jelatin va kraxmal: “Pishloq uchun umumiy standart” (CXS 283-1978) qoidalaridan qat’i nazar, ushbu moddalarni stabilizatorlar bilan bir xil maqsadlarda qo‘llashga ruxsat etiladi, biroq ular faqat texnologik jihatdan zarur bo‘lgan miqdorlarda, tegishli ishlab chiqarish amaliyoti tamoyillariga muvofiq hamda 4-bo‘limda ko‘rsatilgan stabilizatorlar/quyuqlashtiruvchilardan foydalanishni hisobga olgan holda qo‘shilishi lozim;

– sirka;

STANDARTLAR INSTITUTI #XBE51S6TH2 - 25.09.2026 O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI QISHLOQ XO'JALIGI VAZIRLIGI

– guruch, makkajo‘xori va kartoshka uni hamda kraxmali: “Pishloq uchun umumiy standart” (CXS 283-1978) qoidalaridan qat’i nazar, ushbu moddalarni bo‘laklangan, tilimlangan yoki qirg‘ichdan chiqarilgan pishloq yuzasiga ishlov berishda, faqat bo‘laklanishni oldini oluvchi moddalar bilan bir xil maqsadlarda qo‘llashga ruxsat etiladi. Bunda ular faqat texnologik jihatdan zarur bo‘lgan miqdorlarda, tegishli ishlab chiqarish amaliyoti tamoyillariga muvofiq hamda 4-bo‘limda sanab o‘tilgan bo‘laklanishni oldini oluvchi moddalarni qo‘llashni hisobga olgan holda qo‘shilishi shart.

4 Oziq-ovqat qo‘shimchalari

Mazkur mahsulot toifalari uchun faqat quyidagi jadvalda qo‘llanishi asoslangan deb ko‘rsatilgan qo‘shimchalar sinflaridan foydalanishga ruxsat etiladi.

Ushbu standart doirasiga kiruvchi oziq-ovqat mahsulotlarida kislotalilikni tartibga soluvchilar, bo‘laklanishni oldini oluvchi moddalar, bo‘yoqlar, konservantlar, stabilizatorlar va quyuqlashtiruvchilar “Oziq-ovqat qo‘shimchalari uchun umumiy standart” (CXS 192-1995)ning 01.6.1-toifa (yetilmasdan tayyorlanadigan pishloqlar, jumladan yangi pishloqlar) uchun mo‘ljallangan 1 va 2-jadvallariga muvofiq, shuningdek 3-jadvalda ko‘rsatilgan ayrim kislotalilikni tartibga soluvchilar, bo‘laklanishni oldini oluvchi moddalar, bo‘yoqlar, ko‘pik hosil qiluvchilar, konservantlar, stabilizatorlar va quyuqlashtiruvchilardan foydalanishga ruxsat etiladi.

Qo‘shimchaning funksional sinfi	**Asoslangan qo‘llash**	
	Pishloq massasi	**Sirt/qobiqni qayta ishlash**
Bo‘yoqlar	X	X[d])
Oqartiruvchilar	–	–
Kislotalilikni tartibga soluvchilar	X	–
Stabilizatorlar	X[c])	–
Quyuqlashtiruvchilar	X[c])	–
Emulgatorlar	–	–
Antioksidantlar	–	–
Konservantlar	X	X[a])
Ko‘pik hosil qiluvchilar	X[b])	–
Qumoqlanish (bo‘laklanishni) oldini oluvchi moddalar	–	X[a])
Qadoqlash gazi	–	–

a) Faqat bo‘laklangan, tilimlangan, qirg‘ichdan chiqarilgan yoki maydalangan pishloq sirtiga ishlov berish uchun.

b) Faqat ko‘pirtirilgan mahsulotlar uchun.

c) Stabilizatorlar va quyuqlashtiruvchilar, jumladan modifikatsiyalangan kraxmallar, sut mahsulotlari retsepturasiga rioya qilingan holda va faqat texnologik jihatdan zarur bo‘lgan miqdorlarda, 3.2-bo‘lim qoidalariga muvofiq jelatin va kraxmallardan har qanday foydalanishni hisobga olgan holda qo‘llanishi mumkin.

d) Yeyiladigan pishloq qobig‘i uchun.

X — mazkur sinfga mansub qo‘shimchalardan foydalanish texnologik jihatdan asoslangan.

STANDARTLAR INSTITUTI #XBF51S6TH2 - 25.09.2026 O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI QISHLOQ XO'JALIGI VAZIRLIGI

— mazkur sinfga mansub qo‘shimchalardan foydalanish texnologik jihatdan asoslanmagan.

5 Ifloslantiruvchi moddalar

Ushbu standart tatbiq etiladigan mahsulotlar tegishli mahsulotlar uchun belgilangan ifloslantiruvchi moddalar bo‘yicha maksimal ruxsat etilgan darajalarga “Oziq-ovqat mahsulotlari va yem-xashakdagi ifloslantiruvchi aralashmalar va toksinlar uchun umumiy standart” (CXS 193-1995) talablariga muvofiq bo‘lishi lozim.

Mazkur standart tadbiq etiladigan mahsulotlarni ishlab chiqarishda foydalaniladigan sut ham “Oziq-ovqat mahsulotlari va yem-xashakdagi ifloslantiruvchi aralashmalar va toksinlar uchun umumiy standart” (CXS 193-1995)da sut uchun belgilangan ifloslantiruvchi moddalar va toksinlarning maksimal ruxsat etilgan darajalariga, shuningdek “CODEX Alimentarius” Komissiyasi tomonidan sut uchun belgilangan veterinariya dori vositalari va pestitsidlar qoldiqlarining maksimal ruxsat etilgan darajalariga muvofiq bo‘lishi kerak.

6 Sanitariya-gigiyena talablari

Ushbu standart tatbiq etiladigan mahsulotlarni ishlab chiqarishda va ular bilan muomala qilishda “Oziq-ovqat gigiyenasining umumiy tamoyillari” (CXC 1-1969), “Sut va sut mahsulotlari uchun gigiyenik normalar va qoidalar to‘plami” (CXC 57-2004) hamda Kodeksning boshqa tegishli hujjatlari, jumladan gigiyenik amaliyot kodekslari va normalar to‘plamlarining tegishli bo‘limlariga amal qilish tavsiya etiladi.

Mahsulotlar “Oziq-ovqat mahsulotlariga taalluqli mikrobiologik mezonlarni belgilash va qo‘llash bo‘yicha tamoyillar va metodik ko‘rsatmalar” (CXG 21-1997)da nazarda tutilgan barcha mikrobiologik mezonlarga muvofiq bo‘lishi lozim.

7 Tamg‘alash

“Qadoqlangan oziq-ovqat mahsulotlarini tamg‘alash bo‘yicha umumiy standart” (CXS 1-1985) va “Sut sanoati terminlaridan foydalanish bo‘yicha umumiy standart” (CXS 206-1999) qoidalariga qo‘shimcha ravishda quyidagi maxsus talablar qo‘llaniladi.

7.1 Oziq-ovqat mahsulotining nomi

Oziq-ovqat mahsulotining nomi “yetilmasdan tayyorlanadigan pishloq” so‘zlaridan iborat bo‘ladi.

Ayrim pishloq turlarining nomlarida “yetilmasdan tayyorlanadigan pishloq” so‘zlari mavjud bo‘lmasligi mumkin, agar bu tegishli pishloq turlari bo‘yicha Kodeks standartlarida yoki mahsulot sotilayotgan mamlakatning milliy qonunchiligida nazarda tutilgan bo‘lsa va mazkur so‘zlarning nomda yo‘qligi iste’molchining mahsulot mohiyati to‘g‘risida adashishiga olib kelmasa.

Agar mahsulot “yetilmasdan tayyorlanadigan pishloq” deb atalib, muqobil nom yoki turi ko‘rsatilmagan bo‘lsa, bunday nom “Pishloq uchun umumiy standart” (CXS 283-1978)ning 7.1.1-bo‘limida tartibga solingan tavsiflovchi atama bilan to‘ldirilishi mumkin.

Yetilmasdan tayyorlanadigan pishloq, shuningdek, sotilayotgan mamlakatda ushbu nom iste’molchining chalg‘ishiga sabab bo‘lmasligi sharti bilan “yangi pishloq” deb ham belgilanishi mumkin.

STANDARTLAR INSTITUTI #XBF51S6TH2 - 25.09.2026 O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI QISHLOQ XO'JALIGI VAZIRLIGI

7.2 Sut yog‘i miqdorini ko‘rsatish

Sut yog‘i miqdori mahsulot yakuniy iste’molchiga sotilayotgan mamlakatda qabul qilingan shaklda ko‘rsatiladi:

i) foizlarda ifodalangan massaviy ulush ko‘rinishida;

ii) quruq moddadagi yog‘ foizi ko‘rinishida; yoki

iii) porsiyalar soni ko‘rsatilgan tamg‘alashga muvofiq, bir porsiyaga gramm hisobida.

Shuningdek, quyidagi atamalardan foydalanishga ruxsat etiladi:

Yuqori yog‘li (agar quruq moddadagi yog‘ning massaviy ulushi 60 % va undan ortiq bo‘lsa);

Yog‘li (agar quruq moddadagi yog‘ning massaviy ulushi 45 % va undan ortiq, biroq 60 %dan kam bo‘lsa);

Yarim yog‘li (agar quruq moddadagi yog‘ning massaviy ulushi 25 % va undan ortiq, biroq 45 %dan kam bo‘lsa);

Kam yog‘li (agar quruq moddadagi yog‘ning massaviy ulushi 10 % va undan ortiq, biroq 25 %dan kam bo‘lsa);

Yog‘siz (agar quruq moddadagi yog‘ning massaviy ulushi 10 %dan kam bo‘lsa).

7.3 Transport qadoqlari tamg‘alashi

Transport qadoqlarining tamg‘alash “Oziq-ovqat mahsulotlari uchun transport qadoqlarini tamg‘alash bo‘yicha umumiy standart” (CXS 346-2021) talablariga muvofiq bo‘lishi lozim.

8 Tahlil va namuna olish usullari

Ushbu standartga muvofiqlikni tekshirish uchun mazkur standart qoidalariga taalluqli bo‘lgan “Tavsiya etilgan tahlil va namuna olish usullari” (CXS 234-1999) standartida keltirilgan tahlil va namuna olish usullaridan foydalaniladi.

STANDARTLAR INSTITUTI #XBF51S6TH2 - 25.09.2026 O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI QISHLOQ XO'JALIGI VAZIRLIGI

Bibliografik ma’lumotlar

SMT: 67.060

STANDARTLAR INSTITUTI #XBF51S6TH2 - 25.09.2026 O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI QISHLOQ XO'JALIGI VAZIRLIGI